

CHIZILGAN CHEGARA-O'CHMAS IZ:SOVET SIYOSATINING XARITADA QOLGAN SOYALARI.

Mirzaliyev U

Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti

Tovbayeva Shohsanam

Gumanitar fanlar va jismoniy madaniyat Fakulteti

Tarix yo'nalishi 21/25 guruh 1-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sobiq Sovet Ittifoqi davrida Markaziy Osiyoda amalga oshirilgan hududiy chegaralanish siyosatining tarixiy mohiyati, maqsad va oqibatlari ilmiy asosda yoritilgan. Bu maqolada 1920-1930-yillarda bo'lib o'tgan milliy hududiy ajratish jarayoni, uning siyosiy, ijtimoiy hamda madaniy ta'siri haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqolada chegaralanish siyosatining bugungi kun geosiyosiy ahamiyati ham tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Sovet Ittifoqi, Markaziy Osiyo, hududiy chegaralanish, milliy siyosat, etnik tarkib mustaqillik, tarixiy meros.*

KIRISH

Tarix-insoniyat xotirasining eng muhim ko'zgusi. Har bir chizilgan chegara, belgilangan nuqta yoki o'zgartirilgan xarita orqasida siyosiy manfaat, kuch va mafkura yotadi.

XX asrning boshlarida Markaziy Osiyo xalqlari uchun eng muhim tarixiy jarayonlardan biri-Sovet hokimiyati tomonidan amalga oshirilgan milliy-hududiy chegaralanish edi. Bu jarayon nafaqat siyosiy tuzumning, balki butun mintaqaning ijtimoiy va madaniy hayotining yo'nalishini tubdan o'zgartirdi.

Sovet davlati "Milliy respublikalar barpo etish" shiori ostida harakat qilgan bo'lsa-da, aslida bu siyosatning asosiy maqsadi "Bo'lib boshqarish" tamoyiliga asoslangan edi. Markaziy Osiyo xalqlari bir-biridan ajratilib, sun'iy chegaralar chizildi, bu esa keyinchalik uzoq yillar davom etgan etnik va siyosiy ziddiyatlarga sabab bo'di.

Chegaranish siyosatining shakllanish sabablari.

1920-yillar boshlarida Sovet Ittifoqi o'zining mustahkam nazorat tizimini o'rnatish maqsadida millatlar siyosatini qayta ko'rib chiqdi. Rossiya imperiyasining sobiq mustamlakalari bo'lgan Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududlari "qayta tashkil etish" yo'liga o'tkazildi. 1924-yilda bo'lib o'tgan Milliy-hududiy chegaralanish jarayonida Moskva tomonidan maxsus komissiya tuzildi.

Uning tarkibiga o'sha davrning taniqli siyosatchilari, jumladan, F.Xo'jayev, T.Risqulov, S.Ikromov kabi shaxslar kirgan. Ammo qarorlarning asosiy qismi markaz ya'ni Kreml tomonidan qabul qilinardi.

Bu siyosatning rasmiy maqsadi millatlar o'rtasida tanglikni ta'minlash bo'lsa-da, aslida u siyosiy nazoratni kuchaytirish uchun xizmat qilgan. Natijada Turkiston hududi

resh respublikaga-O'zbekiston,Qozog'iston,Qirg'iziston,Tojikiston va Turkmanistonga bo'linib ketdi.(1-125)

Etnik va madaniy muammolar

Chegaranish jarayonida eng muhim mezon sifatida etnik tarkib inobatga olingan bo'lsa-da, amalda bu prinsip ko'p hollarda buzilgan. Masalan, Tojikiston tarkibiga Samarqand va Buxoro kiritilmagan, bu esa tojik ziyolilari orasida norozilik tug'dirgan. Shuningdek, O'zbekiston va Qirg'iziston chegaralarida ko'plab o'zbeklar va qirg'izlar aralash yashab qolgan. (2-98)

Sovet mafkurasining ta'siri

Sovet davrida "yagona sovet xalqi" g'oyasi ilgari surildi. Bu g'oya milliy farqlarni kamaytirish, yagona ideologiyani shakllantirish maqsadida amalga oshirildi. Har bir respublika o'z mustaqil davlatiga o'xshatib ko'rsatilgan bo'lsa-da, amalda ularning barchasi Moskvaga to'liq bo'ysunar edi. Madaniyat, ta'lim va til siyosatida rus tili ustunlik qila boshladi. Mahalliy tillar ikkinchi darajaga tushdi, tarixiy manbalar esa sovet mafkurasiga moslab qayta yozildi. (3-146)

Mustaqillikdan keying davrda chegara masalasi

1991-yilda mustaqillik e'lon qilingach, sobiq ittifoqdan meros qolgan chegaralar davlatlararo nizolarning asosiy manbalaridan biriga aylandi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysi hududi-O'zbekiston, Qirg'iziston va Tojikiston chegaralari kesishgan nuqtalar bugungi kunda ham eng murakkab geosiyosiy hudud hisoblanadi. Bu mintaqalarda suv, yer va transport masalalari hamon hal etilmagan. Biroq mustaqil davlatlar o'rtasidagi siyosiy muloqot va hamkorlik so'nggi yillarda birmuncha faollashgani kuzatiladi. (4-2110)

Sovet Ittifoqi Markaziy Osiyoda hududiy chegaralanish siyosatini amalga oshirar ekan, islomiy tashkilotlarni markazlashtirish va ularni hududiy jihatdan ajratish orqali diniy faoliyatini cheklashga harakat qilgan. Sobiq Ittifoqining Markaziy Osiyodagi hududiy chegaralanish siyosati mahalliy aholi, diniy institutlar va madaniy merosga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Hududiy chegaralanish va islomga qarshi siyosat bir-birini mustahkamlab, mahalliy etnik va diniy identitetini zaiflashtirga xizmat qilgan. Shu bilan birga, mahalliy aholi diniy va madaniy merosni yashirin shakllarda saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan. (5-115-118)

Xulosa

Markaziy Osiyodagi hududiy chegaralar, Sovet siyosatining xaritada qoldirgan soylari sifatida, nafaqat chizilgan liniyalarda, balki insonlarning madaniy va ijtimoiy hayotida ham iz qoldirdi. Sovet hokimiyati hududiy chegaralarni siyosiy boshqaruv va diniy institutlarni markazlashtirish vositasi sifatida ishlatgan bo'lsa-da, mahalliy aholi yashirin shaklda diniy va madaniy merosni saqlashga muvaffaq bo'di. Hududiy chegaralanish faqat geografik vosita emas, balki insoniyat tarixida murakkab siyosiy, etnik va diniy jarayonlarni aks ettiruvchi "xarita soylari"dir. Bu soylalarda mahalliy identitet, madaniy meros va diniy an'analar yashirin, ammo barqaror tarzda saqlanib qolgan. Shunday qilib, Sovet davri siyosati hududiy chegaralar orqali kuchli nazorat o'rnatishga intilgan bo'lsa-da, tarixiy va madaniy izlar insoniyat ongida saqlanib qoldi. Bu

bizga hududiy chegaranish nafaqat siyosiy vosita, balki insoniyatning ijtimoiy va madaniy hayotida chuqur iz qoldiradigan hodisa ekanini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston tarixi" 125-bet.
2. Abdullaev N. "Markaziy Osiyoda milliy chegaralanish masalalari" 98-bet.
3. Is'hoqov M. "Sovet mustamlakachilik siyosati va O'zbekiston " 146-bet.
4. Sodiqov R. "Markaziy Osiyo geosiyosiy muammolari" 211-bet.
5. Khalid S. "To Moscow, Not Mecca: The Soviet Campaign Against Islam in Central Asia, Greenwood Press" 115-118-bet.